



Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2026- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-fevral oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **5 563,5** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,9** % ni tashkil etib, uning hajmi esa 1 158,5 mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi 4 405,0 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 107,4 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (2 184,8 ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 540,5 ming so'mga yoki 19,4 % ga o'sib, 2 725,3 ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 865,9 mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 69,5 % ini, jumladan, 46,5 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2025- yil yanvar-fevral oylari hajmi va 2026- yil yanvar-fevral oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Resp. ²	5 563,5	100,0	120,9
Nukus shahri	1 614,6	29,0	135,5
tumanlar:			
Amudaryo tumani	176,5	3,2	114,8
Beruniy tumani	171,4	3,1	113,9
Bo'zatov tumani	24,0	0,4	113,3
Qorao'zak tumani	59,6	1,1	115,3
Kegeyli tumani	67,8	1,2	116,9
Qo'ng'iro't tumani	335,1	6,0	108,7
Qonliko'l tumani	55,1	1,0	115,5
Mo'ynoq tumani	76,8	1,4	114,5
Nukus tumani	74,8	1,3	114,9
Taxiatosh tumani	79,5	1,4	116,0
Taxtakopir tumani	52,3	0,9	115,6
To'rtko'l tumani	250,1	4,5	113,2
Xo'jayli tumani	158,8	2,9	115,8
Chimboy tumani	106,5	1,9	115,0
Shumanoy tumani	48,8	0,9	115,2
Ellikqal'a tumani	142,4	2,6	117,0

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Nukus shahrining yuqori ulushi (29,0 %) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Qoraqalpog'istonning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Nukus rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

² Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida transport xizmatlari 44,3 % ga (o'sishiga hissasi 7,0 band), yashash va ovqatlanish xizmatlari 15,7 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi 4,8 bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari 20,2 % ga (o'sishiga qo'shgan hissasi 3,3 band), moliyaviy xizmatlar 22,6 % ga (o'sishiga hissasi 2,9 band), ta'lim sohasidagi xizmatlar 8,6 % ga (o'sishiga hissasi 0,7 band) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 8,6 % ga (o'sishiga hissasi 0,4 band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari 2026- yil (yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
Xizmatlar – jami	4405,0	5563,5	120,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	197,2	239,2	108,6
moliyaviy xizmatlar	563,0	714,7	122,6
transport xizmatlari	700,1	1001,0	144,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	424,7	506,1	103,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1352,0	1665,3	115,7
savdo xizmatlari	731,2	909,1	120,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	83,1	93,9	110,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	140,9	172,8	121,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	54,2	60,8	108,0
ijara xizmatlari	74,2	100,1	125,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	122,0	143,7	112,7
shaxsiy xizmatlar	138,0	167,5	109,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,1	42,0	108,2
boshqa xizmatlar	212,8	253,1	105,6


Mavzu bo‘yicha ko‘rsatkichlar:

[Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo‘yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 29,9 %, savdo xizmatlari 16,3 %, transport xizmatlari 18,0 %, moliyaviy xizmatlar 12,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,3 %, ta‘lim sohasidagi xizmatlar esa 3,1 % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari 30,7 foiz, savdo xizmatlari 16,6 foiz, transport xizmatlari 15,9 foiz, moliyaviy xizmatlar 12,8 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,5 foiz, ta‘lim sohasidagi xizmatlar esa 3,2 foiz ulushni tashkil etgan.


*Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo‘yicha tarkibi
2026- yil yanvar-fevral, %*



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o‘shishiga telekommunikatsiya xizmatlarining o‘shishi ta‘sir ko‘rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 68,6 foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa 0,3 foizga o‘sgan.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari tarkibidagi chakana savdoning o‘shishi kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi 91,0 mlrd so‘mga yoki 16,4 foizga o‘shishi kuzatilgan.

Savdo xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar sohasida kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari (109,0 %), kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash xizmatlari (108,7 %) xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 30,4 foizini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qoraqalpog'istonda yashash va ovqatlanish xizmatlarining rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 98,7 % ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 115,6 % ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlari to'lovlar yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo statistikasi
bo'limi

Manzil: 230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45

